

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, B.S.Sharipova</b>	
Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati.....	6
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'ri.....	11
<b>M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov</b>	
Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi .....	16
<b>M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova</b>	
Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ...	23
<b>M.M.Yakubbayev</b>	
Development of lingvocultural competence of students in the process of teaching german language.....	29
<b>J.A.Yuldashev</b>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning metodik xususiyatlari.....	34
<b>X.T.Nishonova</b>	
Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in elementary grades .....	38
<b>Sh.M.Robilova</b>	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli.....	43
<b>U.S.Do'sanov</b>	
Oliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini qo'llash metodikasi.....	47
<b>X.X.Umarov</b>	
Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов .....	51
<b>Д.К.Каримов</b>	
Мониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от типов телосложения у юных акробатов .....	55
<b>З.Г.Гаппаров</b>	
Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании .....	61
<b>M.N.Nasritdinova</b>	
Artpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish.....	67
<b>M.G'Zaylobidinova</b>	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik omillari, Xitoy tajribasi .....	72
<b>D.K.Baydjanova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni .....	78
<b>I.A.Raxmonov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni pedagogik muammosi.....	82

## IQTISODIYOT

<b>M.K.Abadov</b>	
Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan .....	85

## FALSAFA

<b>M.A.Mamatov</b>	
So'fiylik – gumanistik ta'limot .....	90
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'ri .....	98
<b>D.Y.Qambarova</b>	
O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy munosabat mezonlari.....	102



UO'K: 297.4:141.72

**SO'FIYLIK – GUMANISTIK TA'LIMOT****СУФИЗМ – ГУМАНИСТИЧЕСКОЕ УЧЕНИЕ****SUFISM – HUMANISTIC TEACHING****Mamatov Mamadjan Axmadjanovich**

Farg'ona davlat universiteti, falsafa fanlari doktori, professor

**Annotatsiya**

Maqolada tasavvufning ijobiy va tarbiyaviy mohiyati ochib berilgan. Falsafiy merosni o'rganish islom dini boshqa din va xalqlarga qarshi qaratilgan ta'limot emasligini ko'rsatadi. Qur'on mazmuni va so'fiylarning g'oyalari shuni ko'rsatadiki, terrorizm va islom o'rtasida umumiy narsa bo'lishi mumkin emas, chunki terrorchilar islomiy frazeologiyalar orqasiga yashirinib, islom dinining asosiy tamoyillarini buzib ko'rsatadilar. Shuning uchun, jahonda kuzatilayotgan desekulyarizatsiya sharoitida va ayni paytda yoshlar dunyoqarashida ko'proq pragmatik, ya'ni faqat foydani, nafni ko'zlash goyalari ustun kelayotganda jamiyatni gumanizm g'oyalari sari undash uchun jumladan, sufizm tamoyillari vositasida targ'ibot ishlar samarasini yanada kuchaytirish mumkinligi bayon etilgan

**Аннотация**

В статье раскрывается позитивная и просветительская сущность суфизма. Изучение философского наследия показывает, что ислам не является учением, направленным против других религий и народов. Содержание Корана и идеи суфиев показывают, что терроризм и ислам не могут иметь ничего общего, так как террористы, прикрывающиеся исламистской фразеологией, искажают фундаментальные принципы исламской религии. Поэтому в условиях наблюдаемой во всем мире десекуляризации и, когда в мировоззрении молодежи преобладают более прагматичные, т.е. только личная выгода и корыстные идеи, эффективность воспитательной работы может быть дополнительно усилена, принципами суфизма чтобы призывать общество к идеям гуманизма,

**Abstract**

The article reveals positive and educational essence of Sufism. Exploration of philosophical heritage shows that Islam is not a doctrine directed against other religions and nations. The content of Koran and Sufis' ideas demonstrate that terrorism and Islam can't have anything in common since terrorists hiding behind Islamic phraseology distort fundamental principles of Islamic religion. Therefore, in the conditions of desecularization observed throughout the world, and at a time when more pragmatic, i.e., prevail in the worldview of young people. only personal gain and selfish ideas, the effectiveness of educational work can be further strengthened by the principles of Sufism to call society to the ideas of humanism.

**Kalit so'zlar:** Islom; terrorizm va islom; tasavvufning tarixiy-falsafiy mohiyati; dесекуляризация**Ключевые слова:** ислам; терроризм и ислам; историко-философская сущность суфизма; суфийский пантеизм; десекуляризация.**Key words:** Islam; terrorists and Islam; historical and philosophical essence of Sufism; Sufi pantheism; desecularization.**KIRISH**

Dunyoda ro'y berayotgan yalpi jadallashuv jarayoni yangi neogloballashuv bosqichida hamda jahon hamjamiyati hayotida diniy desekulyarizatsiya holatlari kuzatilayotgan bir paytda ma'naviyat masalalari, xususan, insonparvarlik g'oyalari yana-da oydinlashtirish, keng omma e'tiborini shu muammolarning optimal yechimini izlab topishga yo'naltirish, odamlarning falsafiy dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy fanlarning bugungi kundagi eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida hayotga pragmatik yondashuv kuchayib borayotgan sharoitda ma'naviyatning gnoseologik ildizlarini yana-da chuqurroq tadqiq qilib, jamiyat fan oldiga qo'yayotgan savollarga javob topish va ijtimoiy buyurtmani sharaf bilan ado etish uchun zamonaning olimu ulamolari, fozilu fuzalolari tinmay izlanishlar olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich "islom ilm-fani va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va boy ilmiy merosini chuqur o'rganish, mamlakatimiz dovruq'ini jahon miqyosida keng yoyish ishiga munosib hissa

## FALSAFA

qo'shib kelayotgan shaxslarni rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor berish lozimligi" [1.]to'g'risidagi ilmiy asoslangan tavsiyalari bunda biz o'zbek olimlari uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilishi lozim.

XXI asr ilmiy-texnikaviy inqilob va uning oqibatlari bilan bog'liq ko'plab progressiv hodisalarning shakllanish intensivligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, o'tmishdagi ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Ulardan biri ekstremizm bo'lib, afsuski, ko'pincha islomiy ritorika va atributlar ortida yashiringan.

Songgi yillarda, asosan, G'arb ommaviy axborot vositalarida islomga nisbatan soddalashtirilgan tushuncha va munosabat bu dinga mutlaqo mos kelmaydigan, jumladan "islom ekstremizmi" va "islom terrorizmi" kabi "yorliqlar"ni ilgari surishga intilish kuzatilmoqda. Bu murakkab masalani tushunish uchun, avvalo, islom dini o'zining konservatizmi va fundamentalizmi bilan ma'lum ijtimoiy-etnik qatlamlar va guruhlar tomonidan hokimiyatga erishishga qaratilgan siyosiy tajovuzkor tushunchalar o'rtasida fundamental chegarani belgilab olish zarur.

Zamonaviy islomdagi konservatizm musulmon ummatining o'zini G'arbdagidan farqli qadriyatlarga ega bo'lib saqlab qolishga qaratilgan. Bu fundamentalistlarning ma'lum bir mamlakatda zo'ravonlik, ekstremizm va terrorizm bilan hokimiyatni qo'lga kiritishga harakatlarga hech qanday aloqasi yo'q.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Qur'oni Karimning mazmunini sinchiklab o'rganish shuni ko'rsatadiki, terrorizm va islom o'rtasida umumiy narsa bo'lishi mumkin emas, chunki terrorchilar islomiy iboralar orqasiga yashirinib, islom dinining asosiy tamoyillarini buzib ko'rsatadilar. Qur'onni o'rganish bu fikrni isbotlash imkoniyatini beradi. Musulmonlarning Muqaddas Kitobi o'zagini Qodir Tangrini tan olishga, shuningdek, insonparvarlik deb tan olinishi kerak bo'lgan shunday ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarni o'rnatishga da'vat tashkil etadi. Qur'on yanada ilg'or axloqiy-ma'naviy me'yorlarning shakllanishini, ma'rifat va ilmga da'vatni aks ettiruvchi tushunchalarga to'la.

Islom boshqa din va xalqlarga qarshi qaratilgan ta'limot emas. Ma'lumki, islom va nasroniylikda umumiy asos va tamoyillarning mavjudligi dastlab insonparvarroq axloqni shakllantirishga qaratilgan. Masalan, Qur'on va Yangi Ahd tahlili shuni ko'rsatadiki, uchta din – islom, nasroniylik va yahudiylikning muqaddas kitoblarida insonparvarlik tamoyillarida sezilarli o'xshashliklar mavjud.

Tasavvuf ta'limotining ijtimoiy-falsafiy, tarixiy masalalarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlari, jumladan, ko'pkonfessiyali jamiyatlarda dinlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, The George Washington University, Centre of scientific investigation of Central Asia (AQSH), Peace Research Institute Frankfurt, Centre of Scientific investigation of Civil Society (Germaniya), Centre International investergate of Oxford University, School of Culture, religions and politycy in Asia (Buyuk Britaniya), University of Wester Ontario (Kanada), Institute of Central Asia (Fransiya), Institute of International relation (Shvetsiya), Misr, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Eron va islom dini keng tarqalgan davlatlardagi ijtimoiy muammolar bilan shug'ullanayotgan deyarli barcha ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, Markaziy Osiyo va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zolari bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Fanlar akademiyasi sharqshunoslik masalalari bilan shug'ullanuvchi Institutlari (Moskva, Sankt Peterburg), Boshqirdiston davlat pedagogika universiteti (Rossiya), Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston Respublikalarining diniy masalalar tadqiqoti bilan shug'ullanuvchi ilmiy markazlari va Oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, Toshkent islom universiteti, O'zbekiston Milliy universitetida olib borilmoqda.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari [2.], mamlakatimiz hayotining yangi rivojlanish bosqichini boshlab bergan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekistonni barqaror va izchil rivojlantirishga oid konseptual g'oyalari [3-5.] tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Islom dinida tasavvuf ilmi masalalarni o'rgangan faylasuf olimlarning tadqiqotlarini quyidagicha tavsiflash mumkin: tasavvuf ta'limotining genezisi, evolyutsiyasi hamda tarixiy-madaniy paradigma sifatida shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, tasavvuf tarixi, tushunchalari to'g'risida qimmatli materiallar akademik Ibrohim Mo'minov[6.]ning asarlarida yoritilgan. Falsafa fanlari doktori professor M.M.Xayrullayev [7.], N.Komilov [8.], H.Homidiy [9.], I.Ostonaqulov [10-11.], ilmiy ishlarida

mashhur mutasavvurlarning tasavvuf ilmi tarixi va falsafiy mohiyatiga bag'ishlangan ijodiy ishlari tasnifi berilgan.

Tasavvufiy-falsafiy asarlar qatoriga ibn Arabiyning "Futuhot al Makkiya" [12.], "Sharh ul-masoil ar-ruhoniyya allatyi suila a'nho al-Hakim at-Termiziy" [13.], Abdurahmon Jomiyning "Kalimoti qudsiyya Xoja Muhammad Porso" [14.], "Nafaxotu-l-uns min hazaroti-l-quds" [15.], "Lavoyih", [16.], "Tuhfatu-l-ahror" [17.], Alisher Navoiyning "Nasoim-u-l muhabba min shamoimi-l-futuvva" [18.], Husayn al-Vo'iz al-Koshifiyning. "Rashahotu ayni-l-hayot" [19.], Ahmad ibn Abdulloh al-Foruqiy an-Naqshbandiy as-Sirhindiy Imom Rabboniyning. "Maorifi Laduniyya" [20.], Maktuboti Imomi Rabboniy [21.], "Al-mabdau va-l-maad" [22.] kitoblarini ham kiritish mumkin.

So'fiylik nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan asarlar jumlasiga Imom Abu Homid G'azzoliyning "Ihyoyi ulum ad-din" [23.], Imom Sirhindiyning Maktubot kabi kitoblarini kiritish mumkin. Bunday asarlar sirasiga kiradigan yurtdoshimiz Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyning Vasiyatnoma [24.], Xoja Orif Revgariyning Orifnoma [25.], Ahmad Yassaviyning Faqrnoma [26.], Najmiddin Kubroning Usuli ashara asarlari so'fiylar uchun muhim qo'llanma hisoblanadi. Qur'oni karimning taniqli mutasavvuf olimlar tomonidan yozilgan tafsirlari ham o'ziga xos bir ruknni tashkil etadi. Ular qatoriga Najmiddin Kubroning shogirdlari tomonidan oxiriga yetkazilgan "Aynul hayot fi tafsiril Qur'on", hozirgi zamon shayxlaridan biri Abdulaziz Mansurning Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri [27.] kitoblari ham shular jumlasidandir.

So'fiylar she'riyati ham tasavvuf ilmini o'rganishda alohida bir manba sifatida xizmat qiladi. Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" [28.], Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" [29.], farg'onalik shoir Xojanazar Huvaydoning Devoni [30.] ob'yektiv voqelik va kelajakda kutilayotgan abadiy dunyo to'g'risidagi vajdiy tasavvurlar so'fiyona talqinining namunasi. N. Komilov [31.], U. Uvatov [32.], asarlari tasavvuf ta'limoti tarixiga, uning falsafiy mohiyatiga bag'ishlangan. Tasavvufshunos olim H. Yo'ldoshxo'jayev [33.] asarlarida tasavvufning zamonaviy ko'rinishlari tadqiq etilgan. Ularda hozirgi davrdagi tariqatchilikning mumtoz tasavvufdan farqlariga tegishli ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Shuningdek, A.D.Knish [34.], Dj.Trimingem [35.], Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf [36.], G.Navruzova [37.] asarlari tasavvufning ma'lum bir yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlangan.

Tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oya va xulosalar faylasuflar asarlaridagi fundamental qarashlardan keskin farq qilmaydi, balki ularni ayrim, o'z yo'nalishiga oid misollar bilan to'ldiradi.

Biroq ular tasavvuf ta'limotining tarixiy-falsafiy mohiyatini ochib berishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymaganlar.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Jinoiy tashkilotlar rahbarlari va hamkorlari psevdoslomchilar yoki hatto islomga qarshi deb tan olinishi kerak. Ular islomga hech qanday aloqasi bo'lmagan insonparvarlikka qarshi faoliyat olib boradi.

Taniqli olimlarning xolis bahosiga hurmat bajo keltirgan va ularning zamonaviy jamiyatning ma'lum bir qismi hayotida islom dinining o'rni va roli haqidagi fikrlarini to'liq e'tirof etgan holda, ma'naviy oqimlardan biri sifatida tasavvufning insoniyligi haqida ba'zi mulohazalar bildirmoqchiman. Bunda islom dinining qa'rida tug'ilib, uning ilg'or qismlarining maqsad va vazifalari mashhur so'fiylar hayoti va faoliyatidan misollar asosida tahlil qilinadi.

Bu zaruriyat, eng avvalo, taraqqiyotning dialektik tamoyiliga, hodisalarda, jumladan, ma'naviyatda ham davomiylikni tan olishga asoslanadi. Tarixiy o'tmishni ilmiy baholashda og'ishlarning oldini olish uchun merosni chuqur o'rganish kerak, bu holda falsafiy ta'limot, uning bir qismi so'fiylik - kelib chiqishining murakkabligi va xilma-xilligi va ijtimoiy asoslari bilan ajralib turadigan diniy-falsafiy ta'limotdir.

Fundamentalizm va diniy ekstremizm islom islom niqobi ostiga uning asl mohiyatini soxtalashtirib, unga siyosiy tus beradi va shu orqali muqaddas islom yashil bayrog'i ostida yagona xalifalik barpo etish shiorini o'rtaga tashlamoqda. Ana shu g'oyaviy, ba'zan siyosiy kurashda o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida zo'ravonlik, adolatsizlik va hokazolarga qarshilik ko'rsatgan so'fiylikning tarixiy-falsafiy mohiyatini o'rganish alohida dolzarflik kasb etadi, uning asl intilishlari terroristik fundamentalistlar va ekstremistlar tomonidan butunlay inkor etilgan.

"Tasavvuf ta'limotining tarixiy-falsafiy mohiyatni o'rganishning dolzarbligini shundan iboratki, so'fiylarning ko'plab umuminsoniy, pedagogik, axloqiy va estetik g'oyalari o'zining umuminsoniy mazmuniga ko'ra hayotiy bo'lib chiqdi, bebaho insonparvarlik salohiyatini to'pladi va ularda

## FALSAFA

zamonaviy axloqiy me'yorlarni saqlash va yuksaltirishda ijobiy rol o'ynadi. Ijtimoiy jihatdan so'fiylik g'oyalari "o'ziga xos shaklda omma manfaatlarini aks ettiruvchi, o'z vaqtida hukmron tabaqalar tomonidan adolatsizlik va zulmga qarshi chiqqan ilg'or xususiyatni saqlab qoldi" [38. 139].

So'fiylik Sharq musulmon olamining ma'naviy hayoti tarixida muhim o'rin tutadi.

Olimlar – islomshunoslar, tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bu tasavvuf oqimining islomdagi ijtimoiy ildizlarini ochib berishga, uning musulmon jamiyatining ma'naviy-ijtimoiy rivojlanishidagi hamda ijtimoiy-siyosiy-mafkuraviy vazifalari, g'oyalari va o'n to'rt asrlik evolyutsiyasi o'rnini aniqlashga imkon beradi.

Islom tasavvufiy harakati o'zining paydo bo'lishi, vujudga kelishi va rivojlanishi davrida tarixiy bosqichlar, mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy xususiyatlarga asoslangan holda turli shakl va yo'nalishlarda namoyon bo'ldi. Bu davrda so'fiylik mukammal ta'limotga aylandi. Turli tarixiy bosqichlarda turli davlatlarda, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda so'fiylik oqimlari va yo'nalishlarining asosiy ijtimoiy-siyosiy vazifalari, ularning g'oyaviy-ma'naviy faoliyati ham shunga mos ravishda o'zgarib bordi.

Uning asosiy mafkuraviy maqsadlarga erishish tendentsiyalari va shakllari tizimida ko'plab ziddiyatlarni kuzatish mumkin. Tasavvuf umuman qanday shaklda ifodalanishidan qat'i nazar, u musulmon Sharqi ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan.

Tasavvuf ko'p sababli kosmopolit hodisa bo'lib, turli madaniyatlar elementlarini o'ziga singdirgan. Yaqin va O'rta Sharqning ko'plab millatlari vakillarini birlashtirgan, natijada aholining asosiy qismi islomni qabul qilgan, musulmon madaniyati yaratilgan.

Tasavvufning asosiy manbalari Qur'oni Karim va hadisi sharifdir. So'fiylik ham islomiy g'oyalar unsurlarining uyg'unligidan vujudga kelganiga shubha yo'q. Tasavvuf falsafiy tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida ratsionalizm va gumanizmning ontologik asosi sifatidagi panteistik va deistik g'oyalar va qarashlar o'rta asrlar madaniyati ma'naviy hayoti hamda Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy tafakkuriga eng xos bo'lgan. Sharq, katta ahamiyatga ega edi. Bu gaplarning asosligi shundaki, IX-II-asrlar Sharq Uyg'onish davri muammolariga bir qator tadqiqotlar bag'ishlagan akademik N.N.Konrad yozganidek: "Keling, musulmon olamiga, dunyosiga, avvalambor, IX-XI -asrlar Markaziy Osiyo musulmon dunyosiga murojaat qilaylik. Bizga ma'lumki, bu asrlarda fan, falsafa va ma'rifatning o'sha davr uchun eng katta gullab-yashnashi sodir bo'lgan. O'rta Osiyo, hatto qadim zamonlarda ham insoniyat tamaddunining eng muhim manbalariga yo'llar kesishgan joy bo'lgan. o'zi bu tsivilizatsiya markazlaridan birini ifodalagan. Binobarin, "IX-XI asrlar Markaziy Osiyo olami ilm-fan va falsafasining yetakchi namoyondalari - haqiqiy gumanistlar o'z tamoyillarida yangi ta'lim, yangi ma'rifat yaratib o'z davri va qadimgi dunyo o'rtasida, boshqacha qilib aytganda, o'rta asrlarda joylashgan hadrlaridan o'tib ketishdi." [39. 81-82].

Tasavvuf ilmiga insonparvarlik, erkin fikrlash g'oyalari xosdir. Tasavvufning ana shu tomoni mutafakkirlar, faylasuflar va shoirlarni keng jalb qila olgan. Qolaversa, so'fiylik panteizmining islom aqidaparastligiga qarshi yo'nalishi, talablarga, shariatning tashqi g'oyalariga loqayd munosabatda bo'lishga chaqiruvchi so'fiylik amaliyoti, shubhasiz, islom, shariat va diniy asoslarning zaiflashishiga eng bevosita hissa qo'shgan. u peripatetizm, tabiatshunoslik va boshqa ilg'or harakatlar bilan birgalikda erkin fikrning o'sishi va mustahkamlanishiga hissa qo'shgan.

"Forobiy o'z davrining buyuk aqli-zakovati sifatida so'fiylarning ilg'or g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan, ular bilan uyg'un g'oyalarni ilgari surgan. Shu bilan birga, u o'z kitoblarida ekstremistik fikrdagi ayrim hokimiyatlarni qattiq tanqid qilgan" [38. 161-164, 169-173].

O'z davrining yana bir ko'zga ko'ringan olimi Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) so'fiylik va uning ta'limotiga ijobiy munosabatda bo'lgan. Bu so'fiylik ta'limotining ma'naviy-axloqiy jihatlari, chuqur insonparvarligi bilan izohlanadi. U aqidaparastlik - diniy xurofotlardan xoli edi, shuning uchun u ko'pxudolik diniy e'tiqodga asoslangan xalqlar orasiga g'ulu soluvchilarga dushmanligiga qarshi va diniy bag'rikenglik tarafdori edi. Ta'kidlash joizki, mutafakkir ham so'fiylar kabi haddan tashqari boylikka qarshi chiqqan. "Ortiqcha boylik, - deb hisoblaydi u, - odamni buzadi" [39. 149].

Tasavvufda Ibn Sino e'tiborini tortadigan asosiy narsa uning axloqiy me'yorlaridir. Masalan, Ibn Sino "Ishorat va tanbekhot" asarida so'fiyning quyidagi axloqiy fazilatlarini ta'riflaydi: "...so'fiy marddir. U o'limdan qo'rqmaydi. U saxiy va mehribon. U yolg'ondan uzoqdir. U boshqalarni kechiradi. U boshqa odamlarga nisbatan katta qalbgga ega. U hasad qilmaydi. U doimo haqiqat haqida o'ylaydi." [40. 59-66].



Ilk o'rta asrlarda so'fiylik vakillari zulm va o'zboshimchalikka qarshi chiqishgan. Binobarin, Ibn Sino buyuk insonparvar sifatida oddiy mehnatkash xalqning erkin va baxtli hayot kechirishini targ'ib qilgan.

Atoqli shoir, faylasuf va qomusiy olim Umar Xayyomning falsafiy pozitsiyasini alohida ta'kidlash joiz. U panteist bo'lib, unga Yagona Xudo uchun aniq va tasodifiy bo'lmagan maqsadga ega bo'lgan individual "men", individual hayotning ma'nosi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bu maqsadni amalga oshirish uchun erkinlik muhim rol o'ynaydi; Aynan shu erkinlik dunyoqarashning mutlaq qonunlari bilan uyg'unlashgan.

Umar Xayyom uchun har bir inson jism va ruhning o'ziga xos birligidir. U inson uchun "men bilmayman" buyuk ramz, Haqqa, Borliqqa hamda o'z-o'ziga sari bo'lgan harakatning ramzi, hech bo'lmaganda men bilmaydigan odam ekanligimni bilaman, deb hisoblaydi. Bilimga ega bo'lgan va chin dildan "Bilmayman" degan donishmand yo'lning cheksiz ekanligini tushunadi:

"Dilim ilmlardan mahrum bo'lmagan. Bir sir qolmabdiki, mavhum bo'lmagan. Tunu kun o'yladim yetmish ikki yil. Ongladim – hech narsa ma'lum bo'lmabdi." [41. 83]

Tasavvufning insonparvarligi Yassaviy tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviy ta'limoti tamoyillarida ham yaqqol ifodalangan. Tariqat ahli uchun haqiqatga erishish 40 darajadan iborat bo'lib, ular shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlriga bo'linadilar.

Shariatda: muloyim muomala; tariqatda: tavba, nafsga berilmaslik; ma'rifatda: Kelajakni afzal bilish; hamda haqiqat sirlariga erishish; shuningdek, haqiqatda: kamtarlik, yaxshilik va yomonlikni anglash, o'z nasibasidan o'zgalarga ham ravo ko'rish, boshqalarni xafa qilmaslikng, kambag'llarga ko'maklashish kabi darajalari tasavvuf ilmining naqadar insonparvar ta'limot ekanligini yana bir bor to'liq tasdiqlaydi.

Payg'ambar alayhissalomgacha bo'lgan barcha o'ttiz bo'g'imdan iborat naqshbandiya tariqati vakillarining faoliyatini tahlil qilish ushbu maqola doirasida emas. Bu vazifa shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Tasavvuf haqida tasavvur" [36. 77-135.] kitobida muvaffaqiyatli hal etilgan, shuning uchun biz naqshbandiya insonparvarligini aks ettiruvchi qisqacha tahlil bilan cheklanamiz:

1) ular uchun ijtimoiy kelib chiqishi muhim emas. Ular orasida payg'ambarga qarindosh bo'lgan sayyidlar, nasabga ko'ra xalifalar va ular bilan qarindoshlik aloqasi bo'lmaganlar ham bor edi;

2) ular turli millat va irq vakillari edi, demak, bu ular uchun ahamiyatsiz edi;

3) ular uchun chuqur bilim va shariat talablariga rioya qilish qat'iy qoidadir;

4) ular ijtimoiy va mulkiy holatlari jihatidan ham farqlanadi;

5) ba'zi shayxlar juda kamtarona - bir bo'lak non va suv bilan yashashgan, boshqalari va ularning muridlari odatdagidek ovqatlanib, muhtojlarga mazali taom tarqatishar edi;

6) "bu shayxlarning barchasi faqat o'z mehnatlari bilan ijtimoiy e'tirofga erishgan. Ularning hech biri shayxlikni oddiygina meros orqali olmadi, ularning hammasi o'z ustozlari - pirlaridan olganlar." [36. 136-137].

"Tasavvuf ibratli xulq-atvor sari noloyiq xatti-harakatlardan jirkanish darvozasidir. Haqiqiy so'fiyning xislati sh136undaki, u boy bo'lsa-da o'zini kambag'al, kuch-qudratga ega bo'lsa-da kamtar, shon-shuhratda esa ko'zga tashlanmaydi. Tasavvuf ma'naviy mohiyatni egallash va hayvoniy xislatlardan voz kechishni anglatadi. Tasavvuf ko'zni qamashtiruvchi chaqmoqdir." [42. 46-47].

Tasavvuf ta'limoti bo'yica ilk darsliklardan birining muallifi A. Qushayriy (vafoti 1072 yilda) so'fiy ustozlarining hikmatli so'zlari ro'yxatini jamlagan bo'lib, ular bunday idealga qiziquvchilar uchun turli xil axloqiy va ma'naviy maqsadlarni yaratdi.

Shu bilan birga, u o'zining "Qushayriyning so'fiylik ilmi haqida xabari" ("ar-Risola al-kushayriyya fi ilm at-tasavvuf") asarida "mas'uliyatsiz xatti-harakatlar", "bid'at" iboralari bilan haqiqiy so'fiylar va jamiyatga zarar yetkazuvchi, o'zlarining noma"qul qiliqlari, shaytoniy gap-so'zlari harakatlari bilan so'fiylik to'g'risida oddiy dindorlar va ilmiy elita vakillari nazarida noto'g'ri tasavvur paydo qiluvchi "soxta so'fiylar" o'rtasidagi aniq farqni ko'rsatadi. Butun kitob davomida "A.Qushayriy tasavvufni sunniy huquqiy aqidasiiga zid deb talqin qilinishi mumkin bo'lgan xususiyatlardan tozalashga" intiladi.

Naqshbandiya ta'limotining asoschilaridan biri Abdulholiq G'ijduvoniyni (1220-yilda vafot etgan) vasiyatlari ham desekulyaizatsiya jarayonida bizning davrimizda boshqa diniy tashkilotlar qatori doim ham islom dini talablariga mos kelmaydigan tariqatlar tarafdorlari faoliyati ham kengayib borayotgan bir paytda dolzarb bo'lib qolmoqda. Ularga ergashishdan ogohlantirib, mutafakkir

## FALSAFA

xususan shunday yozadi: “Axmoq soʻfiylardan uzoq turing, chunki ular iymonni oʻgʻirlovchilar va musulmonlarni toʻgʻri yoʻldan ozdiradilar” [9. 165]. deb, ogohlantiradi.

Bu oʻrinda soʻfiylikning asl insonparvarlik mohiyatini ifodalovchi ayrim xususiyatlarni batafsilroq taʼkidlashni maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagi “bekat” va maqomlarda namoyon boʻladi:

- Tavba (tavba) – bu “bekat”dagi solik (soʻfiylik yoʻlini tanlagan kishi) ozod boʻlishi va Allohga yaqinlashish yoʻlida unga toʻsqinlik qiladigan soʻz, ibora va harakatlardan oʻzini tiyishi kerak. U qilgan gunohlari va xatti-harakatlaridan pushaymon boʻlib, tavba qiladi. U xatolarini tan oladi va Qurʼon va Sunnat koʻrsatmalariga muvofiq ibodatlarini qaytadan boshlashga harakat qiladi;

- Taqvo (vara) – solik hech kimga zarar yetkazmaslikka harakat qilishi kerak. Taqvo, Shibliy fikricha, uch turga boʻlinadi: birinchidan, tilni maʼnosiz gaplardan tiyish va boshqalarning suhbatiga aralashmaslik; ikkinchidan, barcha shubhalardan yiroq boʻlish, shubhali va harom niyatlardan uzoq boʻlish; uchinchidan, nopok va axloqsiz ishlardan saqlanish;

- Zohidlik (zuhd) – dunyoviy hoy-u havaslardan qochish va zohidona hayot tarzini olib borishdan boshlanadi. solik rasmiy din aqidalari tomonidan taqiqlangan deb hisoblangan hamma narsadan qochishi kerak;

- Faqr – solik oz narsaga qanoat qilishi kerak. U saxiy boʻlishi va kambagʻallarga sadaqa berishi kerak;

- Sabr – barcha qiyinchiliklarga albatta chidash, shikoyat qilmaslik, chidash qiyin boʻlgan hamma narsani kamtarlik bilan qabul qilish. Sabr-toqat oʻzining eng yuqori koʻrinishida befarqlikka, berilgan inoyatni va sinovlarni xotirjam qabul qilishga olib keladi;

- Tavakkul – oʻz ixtiyoridan voz kechish va Allohga soʻzsiz umid qilish, Allohga tavakkal qilish.

- Rizo (qanoat) – shariat koʻrsatmalari va Alloh tomonidan nozil qilingan har bir narsaga rozi rozi boʻlish;

- “Shukr (rahmat) – solikning tili va qalbi bilan minnatdorchilik bildirishi shart” [8. 26-28].

**XULOSA**

Xulosa qilib, aytish mumkinki, soʻfiylikda ichki axloqiy yuksalish yoʻllari, yovuzlik, zoʻravonlik, urushlar, aqidaparastlikka qarshi kurash, gʻalaba uchun, bugungi kun uchun koʻplab gʻoyalar va fikrlarni uchratish mumkin. Adolat, odamlar va butun xalqlar oʻrtasida diniy, milliy bagʻrikenglik gʻyalarini keng tagʻrib qilishda. Shu maʼnoda mazkur muammoning rivojlanishi ilmiy-madaniy ahamiyatga ega boʻlishi bilan birga, siyosiy ahamiyatga ham ega.

Tarixdan soʻfiylarning, soʻfiylik taʼlimotining insonparvarlik gʻoyasini toʻldiradigan baʼzi fikrlarini keltirish oʻrinlidir.

Paygʻambar Abdulloh ibn Muhammadning amakivachchasi Abbos Abu-l-Abbos (619-686) “Ilmning birinchi qismi sukut, ikkinchisi tinglashdir, uchinchisi yodlash, toʻrtinchisi fikr yuritish va beshinchisi - yoyishdir”, - degan.

Ilk islomning eng buyuk ilohiyotchilaridan biri Al-Hasan al-Basriy (642-728) shunday taʼkidlagan: “Oʻz taqdiriga tan bergan odamning sabri kuchga ega. Soʻngra uning sabri Haq uchun boʻlib, tanani doʻzaxdan himoya qilish uchun emas, solihligi esa Haq uchundir, jannatga borish uchun emas, bu esa ixlos belgisidir. Ollohga qasamki, kumushu oltinni yaxshi koʻrgan birorta kishi ham Xudovandning sharmanda va xor qilishidan qutula olmaydi. Dildorlar doim jimlikni afzal koʻradi. Dil birinchi gapiradi va faqat keyin – tillar”

Ilk tasavvufning mashhur namoyandasi misrlik Zunnun Misriy (taxminan 796-861) yozishicha, “soʻfiy — nutqi oʻz xatti-harakatiga toʻgʻri keladigan, sukunati uning ahvolidan soʻzlab beradigan, dunyoviy aloqalardan voz kechuvchi donishmanddir”

Soʻfiy Abu Boyazid Bistomiy (875 yilda vafot etgan) Alloh haqidagi maʼlumot insonda, uni bilish ilmi insonda, muhabbati – insonda, inson qalbida. Qalb – yaratilgan olamga xos arzimagan zarrani ham oʻz ichiga olmaydigan narsadir, – deb hisoblagan.

Tasavvuf ilminingning ilk tafsirchisi mutafakkir Abdulloh at-Tustariy (818-896) tavozeni Alloh huzurida boʻlish holati va unda sabr qilishdir, – deb, oʻrgatgan. Tavba qilish – gunohlaringizni unutmazlik demakdir.

Taniqli soʻfiy Mansur Halloj, (taxminan 858-922) - daʼvat qildi:

“Ey doʻstim, agar “men hayotimni behuda oʻtkazmadim” – demoqchi boʻlsang, odamlarga yaxshilik qilishga harakat qil.



Junayd al-Bag'dodiy (911-yilda vafot etgan), so'fiylikdagi ikki oqimdan birining asoschisi, "Junaydiyya" nomini olgan ratsionalist aytadi: "Tiyilish – qo'lni moldan, qalbni - hirsdan tozalashdir. Tavba - gunohlarni unutishdir".

Sharqiy (Xuroson) so'fiylik maktabining asoschilaridan biri Abu Said Mayxoniydan (987-1049) majlislaridan birida "To'g'ri hayot nimadan iborat?", - deb, so'rashdi. Bu, - deb javob berdi u, - siz dilingizdagi ehtiroslar va bema'ni injiqliklarni yo'q qildingiz, qo'lingizdagi hamma narsani bera olishingiz va boshingizga tushgan har qanday yomonlikka xotirjamlik bilan, qorqmasdan bardosh berishingizdir.

Hiroflik mashhur so'fiy va shoir Al-Ansoriy (1006-1089) shunday ta'lim bergan: "Qalbni himoya qilishga harakat qiling, odamlarning kamchiliklarini yashiring va bu dunyo uchun iymoningizga xiyonat qilmang. O'zini ko'r qilgan nodonlardan uzoqroq turing. Eshitmagan yoki ko'rmagan narsangiz haqida gapirmang. Boshqalarning kamchiliklarini qidirmang, o'zingiznikiga qarang. Bu dunyoga berilmang.

Al-G'azzoliy (1058-1111) - eng buyuk dinshunos va faylasuf: shunday deydi: "Har bir yangi tug'ilgan chaqaloq asl poklikda tug'iladi va faqat keyin ota-onalar uni yahudiy, nasroniy yoki sehrarg qiladilar." "Hasad - nafratning oqibatidir va nafrat - g'azabning oqibatidir, shuning uchun u g'azabning shoxidir va u uning ildizidir".

Shoir va mutafakkir Abu al Majd Majdud ibn Odam Sanoiy (1070-1140) shunday fikr yuritadi: "Ey, o'zingni bilishga qodir bo'lmaganlar, Allohni qanday bilasan? G'azab va ehtiros hayvoniy xususiyatdir, bilim va donolik esa insonning go'zalligidir. Shamol kabi boshqalardan kuchliroq bo'lish uchun yerdek chidamli bo'l. Yaxshilik qil, suv kabi hammaga yordam ber, shunda sen olovdek ko'tarilacan.

Mashhur so'fiy shoir Farididdin Attor (1145-1221) ta'lim bergan: "Hayot qayg'uda yoki quvonchda o'tadi, u hali ham yer, havo, suv va olov bilan bog'liq." "Bu dunyoning hech bir joyida, na quruqlikda, na dengizda, mo'tadillikdan kattaroq boylik yo'q." "Tasavvufiy haqiqatni qoidalar, tamoyillar va marosimlardangina iborat bo'lmaydi, lekin uning bir qismi bularning barchasida mavjud."

Mutafakkir, Faxriddin Roziy (1149-1209) o'rgatadi: "O'rtasi fazilat, qolgan ikki tomoni esa ortiqcha va kamchilikdir." "Mo'tadillik ehtiros kuchining o'rtasidir va jasorat - g'azabning kuchi, lekin donolikning hech qanday ma'nosi yo'q va u qanchalik katta bo'lsa, shunchalik maqtovga sazovordir".

Tasavvuf ta'limotining yirik faylasufi, "borliqning birligi va yagonaligi" (vahdat al-vudjud) ta'limotining yaratuvchisi Ibn al-Arabiy (1165-1240) shunday yozgan edi: "Ta'qdiring ikki dunyodan ustundir, lekin o'z qadringni bilmay qolganing achinarli"18. "Sabr - bu qalbni Allohdan boshqasiga shikoyat qilishdan saqlashdir."

Mashhur tasavvif va shoir Jaloliddin Rumiy (1207-1273) ta'kidlagan: "So'fiyni dindor deyish mumkinmi? Yo'q, u ancha balandroq! U iymon va kufrdan ustundir - uning uchun qanday savob va gunohlar bor? U yashirin, uni qidirib, toping".

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev. Sh. «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi», Prezident 16.04.2018 yil PF-5416-son farmoni.
2. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 3, 10, 22 jildlar. –Toshkent: O'zbekiston, 1993–2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yana-da hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. //Hidoyat, –Toshkent. 2017. –№ 6.
6. Mo'minov I. Tanlangan asarlar. 3-jildlik. 1-jild. -Toshkent: Fan, 1969.-496 b.
7. Хайруллаев М.М. К изучению истории вольнодумных идей в общественной мысли народов Средней Азии. (вместо предисловия ). В Кн: Из истории общественно-философской мысли и вольнодумия в Средней Азии. –Ташкент: Узбекистан, 1991.
8. Komilov N. Tasavvuf. -Toshkent: Movarounnahr, 2009. -448 b.
9. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. -Toshkent: Sharq, 2004. -208 b.
10. Ostonaqulov I. Farg'onalik valiyalar. -Toshkent: Movarounnahr, 2001. –118 b.
11. Ostonaqulov I. Avliyolar sultoni. Turonlik valiyalar. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. -256 b.
12. Арабий М. Мекканские откровения (Ал-Фурухот ал-Маккийя). -Санкт-Петербург: Центр Петербургское востоковедение, 1995. -288 с.

## FALSAFA

13. Arabiy M. Sharh ul-masoil ar-ruhoniyya allatij suila a'nho al-Hakim at-Termiziy. -Qohira, Al-Maktabat at-Taymuriya kutubxonasi. Qo'lyozma. № 255.
14. Abdurahmon Jomiy. Kalimoti qudsiyya Xoja Muhammad Porso. O'zb. FASHI. Qo'lyozma. № 10395/PI. -325 b.
15. Abdurahmon Jomiy. Nafaxotu-l-uns min hazaroti-l-quds. O'zb. FASHI. Qo'lyozma. № 4409. -679 b.
16. Abdurahmon Jomiy. Lavoyih. O'zb. FASHI. Qo'lyozma. № 9784LX. -18 b.
17. Abdurahmon Jomiy. Tuhfatu-l-ahror. O'zb. FASHI. Qo'lyozma. № 2002. -70 b.
18. Alisher Navoiyning Nasoim-u-l muhabba min shamoimi-l-futuvva. O'zb. FASHI. Qo'lyozma. № 5420. -238 b.
19. Husayn al-Vo'iz al-Koshifiy. "Rashahotu ayni-l-hayot". O'zb. FASHI. Qo'lyozma. № 1788. -321 b.
20. Ahmad ibn Abdulloh al-Foruqiy an-Naqshbandiy as-Sirhindiy Imom Rabboniy. Maorifi Laduniyya. O'zb. FASHI. Qo'lyozma. № 482/ PI. -15 b.
21. Ahmad ibn Abdulloh al-Foruqiy as-Sirhindiy. Maktuboti Imomi Rabboniy. O'zb. FASHI. Qo'lyozma. №482/ VIII. -356 b.
22. Ahmad ibn Abdulloh al-Foruqiy as-Sirhindiy. Al-mabdau va-l-maod. O'zb. FASHI. Qo'lyozma. №482/P. -19 b.
23. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy IHYOU ULUMID-DIN (Din ilmlarini jonlantirish) - Toshkent: Movarounnahr, 2007. www.ziyouz.com kutubxonasi.
24. G'ijdivoniy A. Vasiyatnoma. -Toshkent: Adabiyot va san'at, 1993.
25. Ревгарий О. Орифнома. -Ташкент: Наврӯз, 1994
26. Yassaviy A. Faqrnoma. //Devoni hikmat. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.
- B.8-18.
27. Mansur A. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. -Toshkent: Toshkent islom universiteti nashr, 2014. - 624 b.
28. Rumiy J. Ma'navii Masnaviy. -Toshkent: MERIYUS, 2010. -864 b.
29. Yassaviy A. Devoni hikmat. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. -208 b.
30. Huvaydo. X. Devon. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. -304 b.
31. Komilov N. Tafakkur karvonlari. -Toshkent: Ma'naviyat, 1999. -280 b.
32. Uvatov U. Al-Hakim at-Termiziy. -Toshkent: Ma'naviyat, 2014. -38 b.
33. Yo'ldoshxo'jayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari. -Toshkent: Toshkent islom universiteti nashr., 2010. -80 b.
34. Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм. -М.: С.П.: Диля, 2004. -464 с.
35. Тримингэм Дж. С. Суфийские ордены в исламе. -М.: София ИД Гелиос, 2002. -480 с.
36. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. -Toshkent: Sharq, 2012. -280 b.
37. Navro'zova G. N. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. Fals. fan. dokt. ...diss. - Toshkent: 2002. -289 b.
38. Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. -Toshkent: Yozuvchi, 1993. - 208 b.
39. Mamatov M.A. Monografiya. Tasavvuf ta'limotining tarixiy-falsafiy mohiyati. - Toshkent:Toshkent Islom akademiyasi, 2018.
40. Файзуллин Ф., Якупов М. Динамика отношения к исламу в Урало-Поволжском регионе на современном этапе // Ватандаш (Соотечественник). 2008. № 11. С. 195-200.
41. Umar Nauyom. Ruboiylar. -Toshkent: Badiiy adabiyot, 1958.
42. Конрад Н. И. Запад и Восток. М.: Главная редакция восточной литературы, 1972. С. 81-82.